

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI

1-son Oilaviy shifokorlik, jismoniy tarbiya, fuqarolar muhofazasi kafedrasining ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar bo'yicha Ma'rifat darsi

BAYONNOMASI № 6

10.10.25 yil

Toshkent sh.

Qatnashganlar: Prof. Shamansurova E.A., prof. Agzamova Sh.A., dots.: Turdiyeva Sh.T., Ganiyeva D.K., Devorova M.B., Maxkamova G.T., Ulugov A.I., Fayziyev O.N., Butayev CH.J., Toxtayeva D.M., ass., t.f.n. Nosirova G.R., Ergasheva N.R., Abdurazakova Sh.A., ass. Karimova D.I., Koshimbetova G.K., Shayxova M.I., Jumaniyozov N.B., Tillaboyeva A.A., Toirova N.N. va kafedrada tahsil olayotgan 6-kurs talabalari

Kun tartibi: ZOOM orqali “Internet va tahdidlar” mavzusida Kelajak soati o'tkazish muhokamasi.

Eshitildi: Kafedra mudiri va boshqa kafedra hodimlar, 6- kurs talabalari bilan birgalikda ZOOM orqali “Internet va tahdidlar” maruzasida Kelajak soati o'tkazish muhokamasida ishtirok etib, ma'lumotlar bilan tanishtirildi.

Darsning kirish va asosiy qismlarida mavzuning siyosiy-ijtimoiy ahamiyati, Davlat rahbari tomonidan ayni mavzuga oid amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar bayon etildi.



Internet — bu keng va cheksiz imkoniyatlar olami, lekin u bilan ehtiyotkorona muomala qilish kerak. Internet dunyosida oqilona harakat qilish har birimizning vazifamiz. Uning imkoniyatlari katta, ammo tahdidlarini ham unutmasligimiz kerak.

Onlayn qimor — bu internet orqali pul tikib o'ynaladigan qimor o'yinlaridir. Bu o'yinlar turli veb-saytlar yoki ilovalar orqali amalga oshiriladi va ularda ishtirokchilar real yoki virtual pul evaziga yutish yoki yutqazish xavfi bo'ladi.




Kiberbulling — bu raqamli texnologiyalar yordamida (masalan, ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, o'yinlar yoki veb-saytlar orqali) boshqa kishini ataylab haqorat qilish, qo'rqitish, kamsitish yoki sharmanda qilishdir.

Feyk xabar — bu qalbaki yoki yolg'on ma'lumotlarni o'z ichiga olgan xabardir.

Fishing — bu firibgarlikning bir turi bo‘lib, uning maqsadi foydalanuvchining maxfiy ma’lumotlari — login va parollarni qo‘lga kiritishdir. Bunga ommaviy elektron pochta shaxsiy xabarlarini yuborish orqali erishiladi.

Kiberfiribgarlik - internet orqali odamlarni aldash va moddiy yoki shaxsiy manfaat olish uchun qilingan harakatlar.

Xeyter kim? — “Xeyter” — inglizcha “hate” (nafrat) so‘zidan olinib, internetda boshqalarni haqorat qiluvchi, tanqidni haqoratga aylantiradigan, bahs qilish emas, nafrat tarqatishni maqsad qilgan shaxs.



Bugungi ma’ruzadan Internetdan foydalanishda ehtiyotkorlik, tanqidiy fikrlash va mas’uliyat qanchalik muhimligini; Shaxsiy axborotlaringizni himoya qilish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rish zarurligini; Onlayn tahdidlar bilan duch kelganda qanday harakat qilish va qayerga murojaat qilish mumkinligini o‘rganildi.

Internet — bu axborot manbai, lekin noto‘g‘ri foydalanilsa, u jinoiy xatoga olib kelishi mumkin. Har bir fuqaro qonunni bilishi va unga rioya qilishi shart. Radikal guruhlar yoshlar ongiga ta’sir o‘tkazishni xohlaydi. Bizning vazifamiz — ongli, mas’uliyatli fuqaro bo‘lish

Kafedra mudiri, t.f.d. prof.

Shamansurova E.A.

Ma’naviyat va ma’rifat ishlari

bo‘yicha mas’ul, ass.:

Shayxova M.I.